


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI



**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

(SILLABUS)
(Sirtqi ta'lim uchun)

Bilim sohalari:	400 000 -	Biznes, boshqaruv va xuquq
Ta'lim sohalari:	410 000 -	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishlari:	60410100 -	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

Namangan – 2024 yil

Fan/modul' kodi SBAE4	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 4	
Fan/modul' turi Tanlov	Ta'lim turi O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kichik biznes va tadbirkorlik	16 (8 m / 8 a)	104	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati, ularning milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishdagi o'rni va axolining bandlik muammosini xal etishdagi roli to'g'risida nazariy xamda amaliy professional bilimni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – ijtimoiy-iqtisodiy va xududiy shart sharoitlarni, maqsadlarni, texnologiyalarni, bozor va raqobat muhitini tahlil qilishni, ishbilarmonlik xavfini xisobga olgan holda biznesning faoliyat yuritishning ustuvor yunapishlarini aniqlash, korxonada iqtisodiy samaradorligini oshirish yullarini va uni amaliyotda qo'llash mexanizmini ko'rib chikishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Iqtisodiy atamalar, konsepsiya va nazariyalarni bilish va tushunchalarni o'rgatish; ➤ Iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish; ➤ Iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish; ➤ Iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish; ➤ Iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish. <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik fani tushunchalarining mohiyati hamda ishbilarmonlik muhiti.</p> <p>Terminologiya. «Kichik biznes va tadbirkorlik» fanining maqsadi, predmeti va vazifalari. Tadbirkorlik ob'ekti va sub'ekti. «Kichik biznes va tadbirkorlik» fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati, mazmuni. Kichik biznes va tadbirkorlik</p>			

<p>faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar. Ishbilarmonlik muhitining asosiy komponentlari va tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi.</p> <p>2-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik nazariyasi.*</p> <p>Tadbirkorlik nazariyasining evolyutsion rivojlanishi. G'arbda «tadbirkorlik» tushunchasi mohiyatining nazariy yoritilishi. Kichik biznes va tadbirkorlikni nazariy tadqiq etishdagi zamonaviy yo'nalishlar.</p> <p>3-mavzu. Sharqda tadbirkorlikka ilmiy e'tibor va uni rivojlantirilishi.</p> <p>Islom ta'limotida tadbirkorlikka xos qarashlarning o'rni. Sharqda buyuk mutafakkirlarning asarlarida «tadbirkorlik» tushunchasi mohiyatining yoritilishi. Amur Temurning tadbirkorlikka munosabati. Mirzo Ulug'bek davrida tadbirkorlikning rivoji. Alisher Navoiyning tadbirkorlikka xos sa'y-harakatlari.</p> <p>4-mavzu. Tadbirkorlik falsafasi, tamoyil-lari hamda biznes jarayoni va uni amalga oshirish bosqichlari.</p> <p>Tadbirkorlik falsafasi. Tadbirkorlik tamoyillari. Biznes jarayoni tavsifi. Biznes jarayoni va uni amalga oshirish bosqichlari. Biznes jarayonining sxematik talqini.</p> <p>5-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari.*</p> <p>Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari. Tadbirkorlik faoliyatining turlari. Korxonalarining birlashuv asosidagi turlari.</p> <p>6-mavzu. Tadbirkorlik riski.</p> <p>Risk tushunchasining mohiyati va turlari. Ta'sir yo'nalishiga ko'ra tadbirkorlik risklarining turlari. Risklarni boshqarish (risk-menejment). Korxonada faoliyatidagi yo'qotishlarni bashorat qilish va ularning paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish. Kichik biznes va tadbirkorlikni sug'urtalashning xususiyatlari.</p> <p>7-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish.*</p> <p>Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Rejalashtirish tamoyillari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-rejaning ahamiyati. Biznes-rejaning mohiyati, mazmuni va tuzish zaruriyati. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari. Biznes-rejaning bajarilishini nazorat qilish.</p> <p>8-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish.</p> <p>Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlikni boshqarishning</p>

o'ziga xos xususiyatlari. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibi.

9-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish.*

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati. Marketing – bu biznes falsafasi. Marketingning boshqaruv funksiyasi. Bozor segmentatsiyasi. Bozor segmentatsiyasi mezonlari. Biznesdagi kuchli tomonlarning bozor imkoniyatlariga muvofiqligi. Kichik biznes korxonalarida marketingni tashkil etish va marketing tamoyillari. Biznesning hayotiylik davri. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun marketing dasturini ishlab chiqish.

10-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari.

Infratuzilma tushunchasining mohiyati va mazmuni. Bozor infratuzilma tushunchasining mohiyati va mazmuni. Bozor infratuzilmasining muhim elementlarining qisqacha ta'riflari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Kichik biznes sub'ektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish, soliq turlari va soliq imtiyozlari.

11-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlili.

Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining turkumlanishi. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. Davr xarajatlari va uning tarkibi. Mahsulotni tannarxi va uni hisoblash usullari.

12-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy faoliyati tahlili.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Kichik biznes sub'ektlarini kredit bilan ta'minlash shakllari. Kredit stavkasini aniqlash. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida rentabellik darajasini hisoblash usullari.

13-Mavzu. Ishbilarmonlik etikasi va madaniyati.

Tadbirkorlik madaniyatining mohiyati. Ishbilarmonlik etikasi: tushunchasi, tamoyillari, normalari, xususiyatlari. Ishbilarmonlik etikasining etiketdan asosiy farqlari. Ishbilarmonlik madaniyati. Munosabatlar madaniyati. Jamoada ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish. Imo-ishoralari va yuz ifodalari.

14-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarish psixologiyasi.

Temperament haqida nazariy mulohazalar. Inson temperamenti asosida korxonani boshqarish tendentsiyalari. Xodimlarni ijtimoiy-psixologik uslublar asosida boshqarish. Korxonani boshqarishdagi rahbarlik uslublari. Rahbarlikni yuritishda temperamentga xos mulohazalar. Bozor munosabatlariga xos boshqaruv uslublarining shakllanishi.

15-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining faoliyatini tugatish.

Bankrotlik va uning mazmuni. Bankrotlik bosqichlari va sabablari. Bankrotlik ehtimolini baholash koeffitsiyentlari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tugatish shakllari. Korxonani tugatish va qayta tashkil etish o'rtasidagi farqlar. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining to'lovga layoqatsizligi (bankrotligi).

“Kichik biznes va tadbirkorlik” fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	5-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari.*	2
2	9-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish.*	2
3	10-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari.*	2
4	13-Mavzu. Ishbilarmonlik etikasi va madaniyati.* 14-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarish psixologiyasi.*	2
JAMI		8

Izoh: Yuqorida yulduzcha () bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushinishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik fani tushunchalarining mohiyati hamda ishbilarmonlik muhiti.
2. Kichik biznes va tadbirkorlik nazariyasi.*
3. Sharqda tadbirkorlikka ilmiy e'tibor va uni rivojlantirilishi.
4. Tadbirkorlik falsafasi, tamoyil-lari hamda biznes jarayoni va uni amalga oshirish bosqichlari.
5. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari.*
6. Tadbirkorlik riski.
7. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish.*
8. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
9. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish.*
10. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari.
11. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi taxlili.
12. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy faoliyati tahlili.
13. Ishbilarmonlik etikasi va madaniyati.
14. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarish psixologiyasi.
15. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining faoliyatini tugatish.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

“Kichik biznes va tadbirkorlik” fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	5-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari.*	2
2	9-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish.*	2
3	10-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari.*	2
4	13-Mavzu. Ishbilarmonlik etikasi va madaniyati.* 14-Mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarish psixologiyasi.*	2
JAMI		8

Izoh: Yuqorida yulduzcha () bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1. Biznes va tadbirkorlik tushunchalarining mohiyati.
2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar.
3. Kichik biznes va tadbirkorlikni nazariy tadqiq etishdagi zamonaviy yo'nalishlar.
4. Ajdodlarimizning tadbirkorlikka bo'lgan munosabatlarining shakllanishi.
5. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-rejaning ahamiyati.
6. Kichik biznes va tadbirkorlikni sug'urtalashning xususiyatlari.
7. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibotlari.
8. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda bozor infratuzilmasining roli.
9. Bozor iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikni tartibga solish zarurligi.
10. Tadbirkorlik madaniyati va uni qo'llash.
11. Kichik korxonani boshqarishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati.
12. Kichik biznes korxonalarini raqobat sharoitida boshqarish.
13. Kichik biznes korxonalarini faoliyati uchun bozor infratuzilmasini faollashtirish.
14. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish.
15. Yashil iqtisodiyot taraqqiyoti va kichik biznesni rivojlantirish.
16. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini baholash.
17. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va

	<p>ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish.</p> <p>18. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni investisiyalashtirish sharoitlari.</p> <p>19. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini bankrotlikdan chiqarish yo'llari.</p> <p>20. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda tadbirkorlik rivojining poli.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p style="text-align: center;">Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar</p> <p>1. Kichik biznes korxonalarida marketingni o'rni.</p> <p>2. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.</p> <p>3. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi.</p> <p>4. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida mahsulotni tannarxini shakllantirish amaliyoti.</p> <p>5. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.</p> <p>Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrnig boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.</p> <p style="text-align: center;">Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada nazarda tutilmagan.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>✓ kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni; kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni; kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni; kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va tahlil etishni; kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishni; kichik biznes va tadbirkorlikni bank, soliq, sug'urta, bojxona kabi tashkilotlar bilan munosabatlarini; kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish yullarini <i>haqida tassavvurga ega bo'lishi</i>;</p> <p>✓ yangi korxonani tashkil etish; uni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish tartibi; texnik-iqtisodiy asoslash va va biznes-reja ishlab chiqishni; kichik korxonani boshqarish; kichik korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish; kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida marketing faoliyatini</p>

	<p>tashkil etishning uslubiy asoslari buyicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>;</p> <p>✓ kichik biznes va tadbirkorlikni belgilovchi mezonlar xaqida, kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash hakida, kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi xamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari va soliq imtiyozlari xaqida, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha <i>malakalarga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqola yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:</p> <p>Fandan talabalarni bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son <u>buyrug'i</u> bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p>Diqqat! Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.</p> <p style="text-align: center;">Talabalar bilimini baholash mezonlari</p> <p>Moliyaviy menejment fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.</p> <p>1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab</p>

oladi. Talabani nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.

$$OB=N.T(1,2,3)+A.M+MT(3\text{tadan})/3$$

Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari;

A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.

Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60%=3 baxo holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa ya'ni 3 baxodan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

$$OB \geq 60\%$$

Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.

Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60%=3 dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.

$$YaN \geq 60\% = 3.$$

Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oralig'da baholanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtacha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat 2-5 baho oralig'da baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqarsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
2. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
3. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. -T.: TDIU -2010
4. Aripov O.A. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish. -T.: Fan, 2012. - 272 b.
5. Aripov O. A. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. -T.: «IMPRESS MEDIA» MCHJ. Namangan nashriyoti. 2018. - 213 b.
6. Aripov O. A. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga

solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. -T.: 2021. - 225 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Анискин Ю.П. Организация и управление малым бизнесом: Учеб. пособ. - М.: Финансы и статистика, 2008. - 160 с.

Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Tadbirkorlik asoslari. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.

8. Кошурникова Ю. Е. Основы современного предпринимательства: учеб. пособие / Ю. Е. Кошурникова, Е. П. Меркулова. - Иркутск : Изд-во ИГУ, 2014. - 127 с.

9. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Shodibekova D., Samadov A.N. Kichik biznesni boshqarish- T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.

10. Предпринимательство: учебник / под. ред. М.Г.Лапусты. - 4-е издание, доп. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 667 с.

Internet saytlari

www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali

www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

www.imf.uz - O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti

www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti

www.ziyonet.uz - Axborot-ta'lim portali

www.sciencedirect.com. - ommabop ilmiy jurnallar sayti

7.	Namangan muhandislik - qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul' uchun ma'sullar: O.A.Aripov - NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, DSc., prof. v.b.
9.	Taqrizchilar: I.Q.Sirojiddinov - NamMQI, "Iqtisodiyot" kafedrasini professori, i.f.n. R.A.Rashidov - NamMTI, "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, DSc., prof. v.b.